



PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2024 №1

EDITION 1

ISSN 2992-8966

“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA”

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2024-yil, 1-son

Jurnal 2023-yildan chiqa boshlangan

BUXORO-2024

Mundarija:

Islomov Dilshod Shomurodovich.	
FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA FONO-GRAFOSTILISTIK VOSITALAR HAQIDA FIKR MULOHAZALAR.....	4
Tosheva Dildora Iskandarovna.	
MILLIY TA'LIM KONSEPSIYASI JADID MA'RIFATPARVARLARI FAOLIYATIDA.....	10
Radjabov Ruslan Rajabmurodovich.	
FRANSIYA TILI IMLOSINI SODDALASHTIRISH YO'LIDA OLIB BORILGAN IZLANISHLAR XUSUSIDA.....	18
Qurbanova O'lmasoy Usmonovna.	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA XORIJ TAJRIBASI VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	25
Sobirov Abdulaziz Abdurozikovich.	
TALABALARNING REPRODUKTIV SALOMATLIGI MUAMMOLARI	35
Jamolova Lubat Ilhomovna.	
BUXORO AMIRLIGI TARIXSHUNOSLIGIDA AHMAD DONISH ASARLARINING O'RNI HAMDA AHAMIYATI	45
Murodov Ulug'bek O'tkir O'g'li.	
ENHANCING COGNITIVE PROCESSES IN STUDENT CREATIVE ACTIVITIES: A PEDAGOGICAL PERSPECTIVE	52
Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich.	
SHIHOBUDDIN SUHRAVARDIY QARASHLARIDA NAFSNI TIYISH, KAMTARINLIK, FAZILATLARINING TALQINI.....	58
Ярашев Жамшид Рazzокович	
ФИЗИЧЕСКОЕ ПОДГОТОВКА ПОДРОСТКОВ НА ЗАНЯТИЯХ ПО ВОЛЬНОЙ БОРЬБЕ.....	71

FRANSIYA TILI IMLOSINI SODDALASHTIRISH YO'LIDA OLIB
BORILGAN IZLANISHLAR XUSUSIDA

Radjabov Ruslan Rajabmurodovich

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya

KIRISH: Mazkur maqolada fransuz tilining asrlar mobaynida soddalashtirish va "gapiroayotganday yozish" tarafdarlari yoki unga hamfikr bo'limgan lingvist olimlar fikrlari keltirilgan. Hozirgi davrdagi fransuz tili rivoji uchun olib borilayotgan olimlarning ishlari o'rganilgan va ular haqida fikrlar bildirilgan hamda misollar yordamida dalillangan.

MAQSAD: "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Tadqiqot jarayonida til nazariyasi, fransuz tilida orfoepik va orfografik normalarning fonetik, leksik, semantik hamda struktur-semantik xususiyatlarini aniqlash hamda ularni tahlil qilish, orfografik normalarning mohiyatini aniqlash, zamonaviy fransuz tili imlosining tarixiy ildizlari, shakllanishi va taraqqiy etishi, kodifikatsiya va imloni isloq qilish kabi ilmiy metodlardan foydalananilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Imloga oid bo'lgan o'zgartishlardan maqsad tildagi to'g'ri yozish va talaffuz qilish qoidalari soddalashtirishdan iborat edi. Shuning uchun, so'zlar ichidagi talaffuz etilmaydigan ya'ni "keraksiz" undoshlar olib tashlandi. Noshirlar nihoyat, "i" ni "j" dan, "u" ni "v" harflaridan ajratdilar. Bu evolyutsiyalar tabiiy, hech qanday tortishuvlarsiz yuz elliq yil davomida uzluksiz amalga oshirilgan islohotlarning boshlanish nuqtasi edi.

XULOSA: Imloviy reformalardan har qanday til vaqtlar o'tib borishi bilan boyishi, eskirishi talaffuzda bo'ladigan o'zgarishlarga yuz tutishi mumkin bo'lgan murakkab hodisa ekanligini ko'rish mumkin. O'tgan davrlar mobaynida imlo tuzatishlari soddalashtirilgan bo'lsa ham, eslab qolish qoidalari va eslab qolish uchun istisnolar mavjud bo'ladi.

KALIT SO'ZLAR: Jahon tilshunosligi, Fransuz akademiyasi, lotin tili, Pleyada, Molyer tili, orfografiya, so'zlarning etimologiyasi, transkripsiya, yangi imlo, fonologiya.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: В этой статье представлены мнения лингвистов, которые поддерживают или не согласны с упрощением и «пиши, как мы

говорим» французского языка на протяжении веков. Изучены работы ученых, которые в настоящее время работают над развитием французского языка, высказаны и доказаны с помощью примеров мнения о них.

ЦЕЛЬ: Реализация задач, определенных в Постановлениях «О мерах по выводу деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый уровень» и других нормативных правовых документах, связанных с данной деятельностью.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В ходе исследования теория языка выявляет фонетические, лексические, семантические и структурно-семантические особенности орфографических и орфографических норм французского языка и их анализ, определение сущности орфографических норм, исторических корней, становления и развития современной французской орфографии, кодификации и научных методов, таких как реформа орфографии.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: Целью орфографических изменений было упрощение правил правильного написания и произношения на языке. Поэтому непроизносимые, то есть «лишние» согласные в словах были удалены. Издатели наконец отделили «i» от «j» и «u» от «v». Эти изменения стали отправной точкой реформ, которые проводились без каких-либо разногласий на протяжении ста пятидесяти лет.

ВЫВОД: Из реформ орфографии видно, что любой язык представляет собой сложное явление, которое со временем может обогащаться и устаревать, претерпевать изменения в произношении. Хотя с годами исправления орфографии были упрощены, по-прежнему существуют правила и исключения для запоминания.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Мировая лингвистика, Французская академия, латинский язык, Плеяда, язык Мольера, орфография, этимология слов, транскрипция, новое правописание, фонология.

Annotation

INTRODUCTION: This article presents the opinions of linguists who support or disagree with the simplification and " write as we speak " of French over the centuries. The works of scientists who are currently working on the development of the French language are studied, opinions about them are expressed and proven with the help of examples.

AIM: Implementation of the tasks defined in the Resolutions "On measures to bring activities to popularize the study of foreign languages in the Republic of Uzbekistan to a qualitatively new level" and other regulatory legal documents related to this activity.

MATERIALS AND METHODS: In the course of the study, the theory of language reveals phonetic, lexical, semantic and structural-semantic features of spelling and orthographic norms of the French language and their analysis, determination of the essence of spelling norms, historical roots, formation and development. modern French orthography, codification and scientific methods such as spelling reform.

DISCUSSION AND RESULTS: The purpose of the spelling changes was to simplify the rules for correct spelling and pronunciation in the language. Therefore, unpronounceable, that is, "extra" consonants in words were removed. Publishers finally separated the "i" from the "j" and the "u" from the "v." These changes became the starting point of reforms that were carried out without any controversy for one hundred and fifty years.

CONCLUSION: From the spelling reforms it is clear that any language is a complex phenomenon that can become enriched and outdated over time, and undergo changes in pronunciation. Although spelling corrections have been simplified over the years, there are still rules and exceptions for memorization.

KEY WORDS: World linguistics, French Academy, Latin language, Pleiades, Moliere's language, spelling, etymology of words, transcription, new spelling, phonology.

Biz bilamizki, doimiy ravishda tilshunos olimlar o'rtasida bo'ladigan orfografiya, orfoepiyaga oid munozarali bahslar bugungi kunning muammozi emas, balki, u uyg'onish davridan buyon mavjud. Imlo yoki orfografiya faqat so'zlarni yozish usuli bo'lib qolmay, bu so'zlashuv tilidagi so'zlarni transkripsiya qilish uchun standart sifatida ko'rildigan qoidalar va foydalanish to'plamidir. Ammo, o'rta asrlarda, ya'ni XII-XIII asrlarda, yozuv mohiyatan og'zaki sivilizatsiyada ozmi-ko'pmi beqaror xotiraning o'ziga xos yordamchisi sifatida qaralar va uning asoslari mohiyatan fonologik bo'lib, kamchiliklar va ziddiyatlarga ega edi.

Jahon tilshunosligidagi ilmiy tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, asrlar davomida ko'plab grammatiklar, filologlar, fonetiklar, adabiyotshunoslari, tilshunoslari tomonidan bir necha bor soddalashtirish, o'zgartirish, isloh qilish bo'yicha bir qancha urinislarni amalga oshirgan bo'lsa-da, ko'zda tutilgan natijaga erisha olmadi. Chunki, o'rta asrlarda Fransiya bir biridan farq qiladigan ko'plab lahjalarni va dialektlarni o'z ichiga qamrab olgan edi. Shu bilan birga, lotin tili cherkov, olimlar, ulamolar va ta'lim tili bo'lsa-da, ammo, aholining katta qismi vulgar (xalq tili) til bulmish fransuz tilida so'zlashar edi[1].

Bir guruh fransuz shoirlar, jumladan Piyer de Ronsard, Joachim du Bellay, Jan-Antuan de Baïf, Etien Jodel, Remi Bello, Jan Dorat, Jak

PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA

Peletier va Pontus de Tyardlar **Pleyada** atrofida birlashishishlaridan maqsad, o'zlarining adabiy asarlari va nazariy matnlari orqali fransuz tilini yangilash va takomillashtirish, uning lotin tilidan ozod qilinishi, fransuz tilini lotin kabi olivjanob va adabiy tilga aylantirish edi. Birinchilardan bo'lib, Jak Peletye du Mans "*écrire comme on parle*" ya'ni "**gapisirayotgandek yozish**" kerak, deya ta'kidladi, undan keyin Lui Megret etimologik imlo tarafdoqlaridan farqli o'laroq ularni "lotinlar" va aksincha, fonologik imloni himoya qiladiganlarni "zamonaviylar" deb atadi. Fransuz yozuvchisi, tilshunos olim Fransua Rablega kelsak, u 1552 yilda «qadimgi senzura »ni tanqid qilib o'zining grafik tizimini yaratdi. Ilgari hamma o'ziga yoqqan uslubda yozar edi, F.Rable, Mishel de Monten yoki, hatto, Jan Baptist Molyerning ham o'z imlosi bor edi, ular bir asardan boshqasiga o'zgarib turardi.

Shu bilan birga, Paris-Sorbonne universiteti professori Mirey Gushon "Imlo so'zlarning etimologiyasini aks ettirishi kerak va u boshidan kechirgan fonetik buzilishlarni qayd eta olishi kerak"[2], deb ta'kidlagan nazariyasi yuqorida fikrlarni to'ldiradi. Bunga misol tariqasida escliffe- éclisse, medicin-médecin, dipner-dîner kabi so'zlardagi o'zgarishlarni ko'rsatish mumkin.

Ma'lumotlarga yuzlanadigan bo'lsak, dastlab, 1635 yil Kardinal Rishelye tashabbusi bilan yaratilgan Fransiya akademiyasining vazifasi va maqsadi: "*Tilimizga ma'lum qoidalarni berish va uni sof, ravon, to'g'ri talaffuz qilish hamda san'at va fanlar bilan shug'ullanishga qodir qilish ustida ishlashdir*" [3] deb yozilganligiga guvoh bulamiz. Shundan so'ng akademiya fransuz tili orfografiyasiga oid imlo qoidalari tug'risidagi o'zgarishlarni kiritgan holda uni 9 marta nashr ettirdi. Mazkur Akademiyada mashhur akademiklar : La Fonten, Kornel, Rasin yoki Bualo va ko'plab olimlar ishtirot etdilar.

Fransuz imlosi 1650-1835 yillar oralig'ida tabiiy ravishda ancha o'zgardi. O'sha davrdagi o'zgarishlarni "*O'rtacha har o'n ikki yilda, bizning yozuvimizning muhim jihat o'zgarib borardi*" deya ta'kidlaydi tilshunos va grammatik olim Andre Chervel. Haqiqatdan ham, agar biz XVI-XVII asrlar mualliflarining matnlarini o'qisak, ularning asl nashrlarda hozirgi imlodan sezilarli farqlar mavjudligiga guvoh bulamiz. Quyidagi ikkita misol fikrimizga asoli dalil bo'la oladi: mashhur yozuvchi Fransua Rable:(1535 yil) «*Cy n'entrez pas, hypocrites, bigotz, Uieulk matagotz, marmiteux, borsouflez, Torcoulx, badaux, plus que n'estoient les Gotz, Ny Ostrogotz, persecuteurs de magotz* [4]...», yoki bir asrdan so'ng faylasuf Dekart (1637) asarlarida quyidagi misol ham: «*Pour moy ie n'ay iamais presumé que mon esprit fust en rien plus parfait que ceux du commun: mesme i'ai souuent souhaité d'auoir la pensee aussi prompte, ou l'imagination aussy nette et distincke, ou la memoire aussy ample, ou aussy presente, que quelques autres*». Bu misollar fransuz orfografiyasi naqadar

PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA

o'zgarishga yuz tutganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin, albatta bu o'z navbatida orfoepiya yani ushbu o'zgarishga yuz tutgan so'zlarning to'g'ri talaffuziga ham bevosita ta'sir etgan. Bu XVI asrdagi diniy islohotlardan ya'ni protestant islohoti imonlilar uchun Injilni milliy tilda o'qishni majburiyat qilib qo'yganidan boshlandi. Chunki, hamma joyda maktablar ochilib, bolalarni o'qishga o'rgatishardi, bu bilan asta-sekin hamma uchun majburiyatga aylanib borayotgan juda murakkab yangi imloga o'tildi.

Sorbonna Nouvelle universitetining fransuz tilshunosligi va ijtimoiy lingvistikasi professori Mariya Kandea bu haqda shunday deydi "Agar biz Molyerni qanday bo'lsa, shunday qilib o'rgatsak, fransuz tiliga katta xizmat qilgan bo'lardik. Bu hozirgi fransuz tili endi Molyerning tili emasligini aniq ko'rsatardi". Chunki o'sha davrdagi haqiqiy Molyer tili mazkur o'zgarishlardan keyin juda arxaik bo'lib tuyulishi tabiiydir. Misol uchun, Molyer tilida **s** so'z o'rtasida "ʃ" belgisi singari yozilardi (masalan, **saucʃes**). Molyer ham barcha zamondoshlari kabi **i** va **j**, **u** va **v** ni harflarini bir biridan ajratmagan.

Masalan :

Veuve - beva va **trouve** - topish

monnaie - pul va **joie** - quvonch

kabi so'zlar bir-biriga qofiyalaganligini ko'rish mumkin. Buning sababi shundaki yuqorida ko'rsatilgan mazkur so'zlar o'sha davrda **monnwè** va **jwè** tarzida talaffuz qilinganligi tufayli deyish mumkin.

Shu bilan birga yuqorida keltirilgan misollardagi imloga oid bo'lgan o'zgartishlardan maqsad tildagi to'g'ri yozish va talaffuz qilish qoidalarini soddallashtirishdan iborat edi.

Mazkur misollar ham :

«**poictrine**» (hozirda *poitrine*), «**cognoissance**» (*connaissance*), «**escrire**» (*écrire*) kabi so'zlar ichidagi talaffuz etilmaydigan undoshlar olib tashlandi. Sal o'tib, noshirlar nihoyat "i" ni "j" dan, "u" ni "v" harflaridan ajratdilar. Bu evolyutsiyalar tabiiy, hech qanday tortishuvlarsiz yuz ellik yil davomida uzluksiz amalga oshirilgan islohotlarning boshlanish nuqtasi edi deb ayta olamiz. XVII asrning tarixchisi Fransua Eudes de Mezeray «*La compagnie (Académie) déclare qu'elle désire suiure (suivre) l'ancienne orthographe qui distingue les gents de lettres d'avec (avec) les ignorants (ignorants) et les simples femmes.*» deb yozadi. Ta'kidlangan ushbu jumlada o'sha davrda **suivre** (ergashmoq) fe'li **suiuvre** tarzida yoki **avec** (bilan) **auec**, **ignorants** (bilimsiz) **jgnorants** so'zlarida unli va undosh harflari ajratilmaganligiga guvoh bo'lamiz.

2001 yilda Belgiya, Frantsiya va Shveytsariyaning uchta assotsiatsiyasi fransuz tilining yangi imlosi (RENOUVO) tarmog'ini yaratdi va tavsiya etilgan imloning Vadémécum dasturini ishlab chiqishdi, uning sarlavhasi **Le**

millepatte sur un néufar bo'lib, unda 2000 ga yaqin so'z o'zgarishga yuz tutdi. Bu 2009 yil iyun oyida tavsiya etilgan zamonaviy imlo "Grand Vadémécum" tomonidan almashtirildi, u texnik va nodir so'zlarni birlashtirish orqali 5000 ta so'zni o'z ichiga oladi.

2009 yilda nashr etilgan *Le Nouveau Petit Robert* lug'at kitobining nashrida zamonaviy imlolarning 61,3 foizini so'zini qamrab oldi. Masalan, pizzéria so'zi imlosining o'rniga pizzeria kabi yozish qabul qilindi, des mafiosos (mafiozlar) o'rniga des mafiosi, des après-midis (so'zi muntazam s ko'plikda), un compte-goutte (s harfisiz birlikda), millepatte (qo'shilib yoziladigan), imbécilité (bitta 1 harfi bilan yozilishi), charriot (so'zida aksincha ikkita r harfi bilan yozilishi)... kabi qator imloviy o'zgarishlarni o'z ichiga qamrab oldi. Bunday imloviy o'zgarishlarni ko'plab lug'atlar jumladan *Mari Eva de Villersning Multidictionnaire* lug'ati, yangi imlo ta'sir qilgan atamalarni qavs ichiga, o'z navbatida ajratib ko'rsatgan bo'lsa *Le Petit Larousse* yangi imloni to'g'ridan-to'g'ri yozuvlarga birlashtirib ko'rsatdi deya olamiz.

Xulosa qilib aytganda, o'tgan davrlar mobaynida imlo tuzatishlari soddalashtirilgan bo'lsa ham, eslab qolish qoidalari va eslab qolish uchun istisnolar mavjud bo'ladi. Til mutaxassislari, shuningdek, berilgan yechimlar yuqorida aytib o'tilgan holatlarda bo'lgani kabi, tengsiz qo'llanilishini ham bilamiz.

Har doim islohotga intiluvchilar va har qanday islohotning dushmanlari bo'ladi va til yozuv paydo bo'lganidan beri bo'lgani kabi, ishtirokchilarga qaramay yoki ular bilan birga rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mireille Huchon. *Histoire de la langue française*. Poche. 2002
2. Académie française, Article 24 des statuts.
3. Jacques Leconte/Philippe Cibois. In *Que vive l'orthographe!* p. 94/95
4. Jo'rayeva M.M. Fransuz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. Filologiya fanlari
5. Rajabmurodovich, Radjabov Ruslan. "Fransuz tili orfografiyasiga uyg'onish davri tilshunos olimlari tomonidan kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida." "Canada" International conference on developments in education, sciences and humanities. Vol. 9. No. 1. 2023.
6. Rajabmurodovich, Radjabov Ruslan. "Orfoepiya va zamonaviy fransuz tilining orfoepik normasi xususida." International scientific conferences with higher educational institutions. Vol. 1. No. 05.10. 2023.
7. Radjabov, Ruslan. "Tilshunoslar ahamiyatidagi tinish belgilarining dastlabki sharhlari." Центр научных публикаций (buxdu. uz) 31.31 (2023).

PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA

8. Radjabov, Ruslan. "Fransuz tili orfoepiyasining shakllanish bosqichlari." *Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 30.30 (2023).
9. Radjabov, Ruslan. "Orfografiya Fransuz tili orfografiyasiga oid ilmiy-nazariy qarashlar: Orfografiya to'g'risidagi olimlarning nazariy qarashlari." *Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 27.27 (2023).
10. Ruslan, Radjabov. "Points de vue scientifiques sur les normes orthoépiques françaises." *Gospodarka i Innowacje.* 42 (2023): 726-730.
11. Ruslan, Radjabov. "À propos du terme orthoépie." *Gospodarka i Innowacje.* 42 (2023): 731-735.

**MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]
[AUTHORS INFO]**

Radjabov Ruslan Rajabmurodovich, o'qituvchi

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro, Hamza ko'chasi 96

<https://orcid.org/0000-0002-1565-1119>; rouslanrich@gmail.com



<https://scientificjournal.uz/>

